

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIYAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIYAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI

Turopova Nigora Xolmurod qizi

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi i.f.f.n., (PhD)

Email: nturopova92@tersu.uz

ORCID: 0009-0009-5789-1207

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatda iqtisodiy o'sish omillarini faollashtirish va ularni rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy xavf-xatarlar (kredit, valyuta, likvidlik va foiz stavkasi xavflari)ning salbiy ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ushbu xavflarni miqdoriy va sifat jihatidan baholash hamda ularni minimal-lashtirishning samarali usullari va strategik yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Tahlillar va xalqaro tajriba asosida iqtisodiy o'sish omillarini moliyaviy xavflardan himoyalash bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi analitik modellar moliyaviy xavflarni aniqlash va prognozlashda samarali vosita bo'lishi mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish omillari, moliyaviy xavflar, risk-menedjment, xedjlash, diversifikatsiya, makroiqtisodiy barqarorlik, investitsiya faolligi.

Аннотация. В данной статье проанализировано негативное влияние финансовых рисков (кредитного, валютного, риска ликвидности и процентного риска), возникающих в процессе активизации и развития факторов экономического роста страны. В исследовании рассмотрены вопросы количественной и качественной оценки указанных рисков, а также эффективные методы и стратегические направления их минимизации в целях обеспечения экономической стабильности. На основе проведенного анализа и изучения международного опыта разработаны практические предложения и рекомендации по защите факторов экономического роста от финансовых рисков. Кроме того, обоснована возможность использования аналитических моделей на основе искусственного интеллекта в качестве эффективного инструмента выявления и прогнозирования финансовых рисков.

Ключевые слова: факторы экономического роста, финансовые риски, риск-менеджмент, хеджирование, диверсификация, макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность.

Abstract. This article analyzes the adverse impact of financial risks (credit, currency, liquidity, and interest rate risks) arising in the process of stimulating and developing the factors of economic growth in a country. The study examines quantitative and qualitative approaches to assessing these risks, as well as effective methods and strategic directions for their mitigation in ensuring economic stability. Based on the analysis and international experience, practical recommendations and proposals are developed to protect the drivers of economic growth from financial risks. In addition, the study substantiates that artificial intelligence-based analytical models can serve as effective tools for identifying and forecasting financial risks.

Keywords: economic growth factors, financial risks, risk management, hedging, diversification, macroeconomic stability, investment activity.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, geoiqtisodiy beqarorlik va moliya bozorlaridagi volatil (tebranuvchan) holatlar har bir mamlakat oldiga barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va uning omillarini faollashtirish vazifasini qo'yimoqda. Iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish, investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirish iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari va omillari hisoblanadi. Biroq ushbu omillarni rivojlantirish jarayoni bevosita turli ko'rinishdagi moliyaviy xavf-xatarlar (kredit, valyuta, foiz stavkasi hamda likvidlik risklari) bilan uzviy bog'liqdir.

Moliyaviy xavflarning to'g'ri baholanmasligi va o'z vaqtida minimallashtirilmasligi kapital harakatining sekinlashishiga, investitsiya loyihalarining samaradorligi pasayishiga va oqibatda makroiqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Shu bois iqtisodiy o'sish omillariga moliyaviy risklarning ta'sir kanallarini aniqlash hamda

ularni kamaytirish bo'yicha ta'sirchan risk-menedjment mexanizmlarini ishlab chiqish o'ta dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy xavflar investitsiya jarayonlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, iqtisodiy barqarorlikni pasaytirishi hamda iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli moliyaviy xavflarni o'z vaqtida aniqlash, baholash va boshqarish muhim ilmiy hamda amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ushbu muammoni hal etishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy o'sish va moliyaviy xavflar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi iqtisodiyot nazariyasi hamda amaliyotida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Klassik va neoklassik iqtisodiy nazariya vakillari (A. Smith, J.M. Keynes, R. Solow) iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida kapital to'planishi, mehnat resurslari va texnologik taraqqiyotni e'tirof etgan bo'lsalar-da, zamonaviy tadqiqotlarda ushbu omillarning harakati moliyaviy muhit va undagi risklar darajasiga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatilmog'da.

Xalqaro iqtisodchi olimlardan J. Schumpeter va keyinchalik R. Levine o'z tadqiqotlarida moliya tizimining rivojlanishi va xavflarni to'g'ri taqsimlash iqtisodiy o'sishning asosiy katalizatori ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning qarashlariga ko'ra, samarali risk-menedjment mexanizmlari kapitalni unumdor loyihalarga yo'naltirish imkonini beradi.

M. Obstfeld va G. Kaminsky kabi tadqiqotchilar esa global moliyaviy beqarorlik va valyuta hamda kredit xavflarining ortishi real sektorga investitsiyalar kirib kelishini cheklashi hamda iqtisodiy pasayishga olib kelishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

O'zbekistonlik va MDH mamlakatlari olimlarining tadqiqotlarida esa o'tish iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o'sish omillarini moliyalashtirishda yuzaga keladigan tizimli va tizimsiz xavflarni baholash hamda ularni davlat tomonidan tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq bugungi makroiqtisodiy beqarorlik va yangi geoiqtisodiy sharoitda iqtisodiy o'sish omillariga moliyaviy risklarning ta'sir kanallarini kompleks tahlil qilish hamda ularni kamaytirish bo'yicha ta'sirchan amaliy mexanizmlarni takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy o'sish omillariga moliyaviy xavflarning ta'sirini baholash va ularni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida quyidagi ilmiy tadqiqot usullari va metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

Tizimli va mantiqiy tahlil usuli: iqtisodiy o'sish omillari (investitsiyalar, eksport, innovatsiyalar) hamda moliyaviy xavf turlari (kredit, valyuta, foiz va likvidlik risklari) o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini nazariy jihatdan asoslashda qo'llanildi.

Qiyosiy va statistik tahlil (Comparative & Statistical Analysis): makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hamda moliya-bank sektoridagi risk indikatorlarining dinamikasini o'rganish va ularning o'zaro ta'sir darajasini baholash uchun ishlatildi.

Induksiya va deduksiya usullari: xalqaro tajriba va ilg'or risk-menedjment amaliyotlarini o'rganish asosida umumiy qonuniyatlarni chiqarish va ularni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirishda foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy o'sish omillarini barqaror rivojlantirish va uning sur'atlarini ta'minlash bevosita moliyaviy resurslar oqimi hamda ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Biroq, makroiqtisodiy muvozanatni saqlash jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy xavf-xatarlar iqtisodiyotning real sektoridagi faollikka turli kanallar orqali salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'tkazilgan ilmiy tadqiqot va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda iqtisodiy o'sish omillarini barqaror rivojlantirish va uning sur'atlarini ta'minlash bevosita moliyaviy resurslar oqimi hamda ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Biroq, makroiqtisodiy muvozanatni saqlash jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy xavf-xatarlar iqtisodiyotning real sektoridagi faollikka turli tizimli kanallar orqali salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Eng avvalo, kredit xavfining zanjirli ta'siri tijorat banklari portfelida muammoli kreditlar (NPL — Non-Performing Loans) ulushining ortishida namoyon bo'ladi. Bu holat banklarning kapital resurslarini band qilib qo'yadi va risklarni jilovlash maqsadida kreditlash shartlarini qattiqashtirishga majbur etadi. Oqibatda real sektor korxonalariga, ayniqsa, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etayotgan subyektlarga va kichik hamda o'rta biznesga kredit oqimi sekinlashadi, bu esa kapital to'planishi hamda investitsion faollikning susayishiga



olib keladi.

Ikkinchidan, valyuta xavfining ortishi va milliy valyuta kursining keskin tebranishi (devalvatsiya) tashqi qarz majburiyatlari mavjud bo'lgan korxonalar va moliya-bank muassasalari uchun moliyaviy yukni keskin oshiradi. Import qilinadigan zamonaviy texnologiyalar, uskunalar va xomashyo narxining qimmatlashishi ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini oshirib, uning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini pasaytiradi. Shu bilan birga, xorijiy investorlar uchun kutilayotgan daromadning valyuta risklari sababli qadrsizlanish xavfi ortadi va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) kirib kelishi cheklanadi.

Uchinchidan, foiz stavkasi va likvidlik risklari makroiqtisodiy barqarorlikka bevosita tahdid soladi. Inflyatsiyani jilovlash maqsadida Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining oshirilishi qarz kapitali narxining qimmatlashishiga olib keladi. Bu holat investitsiya loyihalarining sof joriy qiymati hamda ichki daromadlilik normasi ko'rsatkichlarini pasaytirib, ko'plab istiqbolli loyihalarni rentabelsiz qilib qo'yadi. Likvidlik riski esa moliya-bank tizimida va korxonalar o'rtasida to'lovlar intizomini izdan chiqarib, zanjirli qarzдорlikni keltirib chiqaradi.

Ushbu salbiy ta'sir kanallarini neytrallashtirish va iqtisodiy o'sish omillarini moliyaviy tebranishlardan himoya qilish uchun qator amaliy va strategik yechimlarni joriy etish talab etiladi. Valyuta riskini kamaytirishda hosilaviy moliyaviy qurollar (derivativlar), ya'ni valyuta fyucherslari, forward shartnomalari va svoplar (Currency Swaps) amaliyotini kengaytirish lozim. Bu eksportchi va importchi korxonalarga valyuta kursini oldindan fiksatsiya qilish hamda moliyaviy oqimlarni aniq rejalashtirish imkonini beradi.

Kredit xavfini kamaytirish va resurslar samaradorligini oshirish uchun yirik infratuzilma hamda investitsiya loyihalarini bir nechta banklar konsorsiumi orqali sinditsiyalangan kreditlash hamda Kreditlarni kafolatlash jamg'armalari faoliyatini rivojlantirish zarur. Bu bitta bankka tushadigan risk konsentratsiyasini qisqartiradi. Bank tizimi likvidligini ta'minlash va foiz tebranishlaridan ko'riladigan zararlarni kamaytirishda esa Markaziy bankning makroprudensial nazorati, stress-test sinovlari va foizli svoplar (Interest Rate Swaps) mexanizmini ommalashtirish kutilgan ilmiy-amaliy samarani beradi.

Umuman olganda, iqtisodiy o'sish omillarini jadal va barqaror rivojlantirish uchun shunchaki moliyaviy resurslarni ajratish yetarli emas. Mamlakatda zamonaviy risk-menedjment va xedjlash infratuzilmasi shakllantirilgandagina kiritilgan investitsiyalar kutilgan makroiqtisodiy samaradorlikni ta'minlay oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy o'sish omillarini rivojlantirish va ularni moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy xavf-xatarlarning ta'sir mexanizmlari, ta'sir kanallari hamda ularni minimallashtirish imkoniyatlari kompleks ravishda o'rganildi. O'tkazilgan tahlillar va nazariy-amaliy umumlashmalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Moliyaviy xavflarning tizimlashtirilishi: Iqtisodiy o'sish omillari (investitsion faollik, eksport va ishlab chiqarish quvvatlari) hamda moliyaviy xavflar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Kredit, valyuta, foiz hamda likvidlik risklari real sektor korxonalarining kapital to'plash va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Ta'sir kanallarining namoyon bo'lishi: Valyuta kursi tebranishlari import texnologiyalari va xomashyo tannarxini oshirib, raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatsa, foiz stavkalarining yuqoriligi investitsiya loyihalarining sof joriy qiymati va rentabelligini pasaytiradi. Bank tizimidagi muammoli kreditlar esa real sektorga uzoq muddatli resurslar ajratilishini sekinlashtiradi.

Infratuzilmaviy ehtiyoj: Iqtisodiy o'sish omillarini faollashtirish uchun nafaqat moliyaviy resurslar hajmini oshirish, balki ushbu resurslarni xavf-xatarlardan himoya qiluvchi zamonaviy risk-menedjment va xedjlash mexanizmlarini joriy etish talab etiladi.

Bu esa investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bayboboyeva F. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy xavfsizlikni tashkil etish jarayoni // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2023.
2. Jalilov A.A. Kichik biznesni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy shakllari // Iqtisodiyot va ta'lim. — 2016.
3. Tursunov B. Financial Security in Small Business in Period of Digital Economy: In Case of Uzbekistan // Proceedings of the International Conference on Future Networks and Distributed Systems. — 2023.
4. Stiglitz J.E. Information and the Change in the Paradigm in Economics // American Economic Review. — 2002.
5. Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. — Pearson, 2016.
6. Demirgüç-Kunt A., Levine R. Finance and Growth: Theory and Evidence // Handbook of Economic Growth. — 2008.
7. Yunus M. *Banker to the Poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty*. — New York: PublicAffairs, 2003.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100